

IJTIMOIY TARMOQLAR TILINING ADABIY TILGA TA'SIRI

Jumayev Elmurod Bekpulatovich

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

dotsenti v.b, fffd (PhD)

elmurodjumayev272@gmail.com

Murodova Hosiyat Baxtiyor qizi

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-kurs talabasi

murodovahosiyat@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolamda ijtimoiy tarmoqlar tilining o'zbek adabiy tiliga ko'rsatayotgan ta'siri lingvistik va kommunikativ jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Facebook, Instagram, Telegram hamda TikTok kabi platformalarda qo'llanilayotgan yangi leksik birliklar, neologizmlar, internet slenglari, qisqartmalar va xorijiy tillardan kirib kelgan o'zlashmalar o'rganildi. Shuningdek, internet kommunikatsiyasi jarayonida emojilar, memlar hamda qisqa yozuv shakllarining yoshlar nutqiga va adabiy til me'yorlariga ta'siri yoritildi. Maqolada zamonaviy texnologiyalar natijasida tilning boyishi bilan bir qatorda, imlo va uslubiy me'yorlarning buzilishi holatlari ham ilmiy asosda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari ijtimoiy tarmoqlar til taraqqiyotini jadallashtirayotganini, biroq adabiy til madaniyatini saqlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *ijtimoiy tarmoqlar, adabiy til, neologizm, internet slengi, raqamli kommunikatsiya, til madaniyati, leksik birliklar, o'zlashma so'zlar, zamonaviy texnologiyalar, internet tili.*

Abstract. This article analyzes the influence of social media language on the Uzbek literary language from linguistic and communicative perspectives. During the research, new lexical units, neologisms, internet slang, abbreviations, and borrowed words used on platforms such as Facebook, Instagram, Telegram, and TikTok were studied. In addition, the influence of emojis, memes, and shortened writing forms on youth speech and literary language norms in the process of internet communication was highlighted. The article scientifically examines not only the enrichment of language as a result of modern technologies but also cases of violations of spelling and stylistic norms. The research results show that social networks accelerate language development; however, preserving the culture of literary language remains an important issue.

Key words: *social networks, literary language, neologism, internet slang, digital communication, language culture, lexical units, borrowed words, modern technologies, internet language.*

Аннотация. В данной статье лингвистически и коммуникативно анализируется влияние языка социальных сетей на узбекский литературный язык. В ходе исследования были изучены новые лексические единицы, неологизмы, интернет-сленг, сокращения и заимствованные слова, используемые на таких платформах, как Facebook, Instagram, Telegram и TikTok. Также освещено влияние эмодзи, мемов и сокращённых форм письма на речь молодёжи и нормы литературного языка в процессе интернет-коммуникации. В статье с научной точки зрения проанализированы не только процессы обогащения языка под влиянием современных технологий, но и случаи нарушения орфографических и стилистических норм. Результаты исследования показывают, что социальные сети ускоряют развитие языка, однако сохранение культуры литературного языка остаётся актуальной задачей.

Ключевые слова: социальные сети, литературный язык, неологизм, интернет-сленг, цифровая коммуникация, культура речи, лексические единицы, заимствованные слова, современные технологии, интернет-язык.

KIRISH. Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda internet hamda ijtimoiy tarmoqlar inson hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Ayniqsa, Facebook, Instagram, Telegram va TikTok kabi platformalar nafaqat axborot almashish vositasi, balki yangi kommunikativ muhit sifatida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu jarayon til tizimiga, xususan, o‘zbek adabiy tilining leksik, uslubiy va kommunikativ xususiyatlariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Ma’lumki, til jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, undagi har qanday ijtimoiy yoki texnologik o‘zgarish til rivojida ham o‘z aksini topadi. Hozirgi davrda ijtimoiy tarmoqlarda qisqa va tezkor muloqot shaklining ommalashuvi natijasida yangi leksik birliklar, neologizmlar, sleng so‘zlar, qisqartmalar hamda xorijiy tillardan kirib kelayotgan o‘zlashmalar keng qo‘llanilmoqda. Jumladan, “story”, “like”, “post”, “follower”, “trend”, “chat”, “blogger” kabi birliklar yoshlar nutqining faol qatlamiga aylanib bormoqda. Shu bilan birga, emojilar, memlar va internet slanglarining keng tarqalishi yozma nutqning yangi ko‘rinishini shakllantirmoqda.

Men ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlar tilining adabiy tilga ko‘rsatayotgan ta’sirini lingvistik jihatdan tahlil qilishni maqsad qildim. Tadqiqot davomida internet kommunikatsiyasi natijasida yuzaga kelayotgan yangi til birliklari, ularning qo‘llanish xususiyatlari hamda yoshlar nutqiga ta’siri o‘rganildi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda adabiy til me’yorlariga rioya qilinmasligi, imlo va uslubiy xatolarning ortib borishi kabi masalalar ham tahlil qilindi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda internet tili kundalik muloqotning asosiy vositalaridan biriga aylanib bormoqda. Bu esa bir tomondan tilning boyishiga xizmat qilayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan adabiy til madaniyatini saqlash

masalasinı yanada muhimlashtirmoqda. Shu sababli ijtimoiy tarmoqlar tilining o‘zbek adabiy tiliga ta‘sirini ilmiy jihatdan o‘rganish, uning ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlash zamonaviy tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bugungi axborotlashgan jamiyatda internet va raqamli texnologiyalar insonlarning kundalik hayot tarzini tubdan o‘zgartirib yubordi. Ayniqsa, Facebook, Instagram, Telegram, TikTok hamda boshqa ijtimoiy platformalar muloqotning eng faol vositasiga aylandi. Ushbu platformalarda foydalanuvchilar o‘rtasidagi tezkor axborot almashinuvi tilning rivojlanishiga, yangi leksik birliklarning paydo bo‘lishiga hamda nutq uslublarning o‘zgarishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ma‘lumki, til jamiyat taraqqiyoti bilan birgalikda rivojlanadi. Har qanday texnologik yangilik yoki ijtimoiy o‘zgarish til tizimida ham aks etadi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali shakllanayotgan internet tili bugungi kunda o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamiga yangi so‘zlar, iboralar va kommunikativ birliklarni olib kirayotgan muhim omillardan biridir. Ayniqsa, yoshlar orasida internet orqali muloqot qilish kundalik hayotning asosiy qismiga aylanganligi sababli, ijtimoiy tarmoqlar tili ularning nutq madaniyatiga bevosita ta‘sir qilmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar tilining eng muhim xususiyatlaridan biri - yangi leksik birliklar va neologizmlarning tez shakllanishidir. Internet muhitida yangi tushunchalar, texnologiyalar va kommunikativ vositalarning paydo bo‘lishi natijasida ularga mos yangi so‘zlar ham yuzaga kelmoqda. Masalan, “like”, “story”, “post”, “repost”, “follower”, “trend”, “chat”, “blogger”, “kontent”, “fake”, “hashtag” kabi birliklar qisqa vaqt ichida keng ommalashib, o‘zbek tilida faol qo‘llanila boshladi. Bugungi kunda “story qo‘ydim”, “post tashladim”, “trendga chiqdi”, “like bosdim” kabi iboralar yoshlar nutqining tabiiy qismiga aylangan. Ushbu birliklarning aksariyati ingliz tilidan o‘zlashtirilgan bo‘lib, ular internet kommunikatsiyasi orqali tez tarqalmoqda. Bu holat bir tomondan til boyligining ortishiga xizmat qilayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan xorijiy birliklarning haddan tashqari ko‘payishi milliy til me‘yorlariga ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlarda qo‘llanilayotgan neologizmlarning katta qismi ot va sifat turkumiga mansubdir. Chunki internet muhiti asosan yangi predmet, hodisa va jarayonlarni nomlashga ehtiyoj tug‘diradi. Ayniqsa, texnologik terminlar va kommunikativ vositalar bilan bog‘liq birliklar tez ommalashmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar tilining yana bir muhim jihati internet slengi va qisqartmalar bilan bog‘liqdir. Tezkor yozish va vaqtni tejash maqsadida foydalanuvchilar ko‘plab qisqartirilgan shakllardan foydalanmoqda. Masalan, “OK”, “LOL”, “OMG”, “IMHO”, “IDK” kabi qisqartmalar internet muloqotining ajralmas qismiga aylangan. Shuningdek, o‘zbek internet foydalanuvchilari orasida ham qisqartirilgan yozuvlar keng qo‘llanmoqda. “slm”- “salom”, “rhm” - “rahmat”, “nma gap”, “qalesan”, “keldm”, “borvoman” kabi shakllar yoshlar nutqida tez-tez uchraydi. Bunday yozuvlar

tezkor muloqot uchun qulay bo‘lsa-da, adabiy tilning imlo va uslubiy me‘yorlariga mos kelmaydi. Internet slengi asosan norasmiy kommunikatsiyada faol qo‘llaniladi. U foydalanuvchilar o‘rtasidagi samimiylilikni kuchaytiradi, muloqotni soddalashtiradi va tezlashtiradi. Ammo ushbu sleng birliklarining keng tarqalishi ayrim hollarda yoshlarning adabiy til qoidalariga e‘tiborini susaytirishi mumkin.

Raqamli kommunikatsiya jarayonida emojilar va memlar ham tilning yangi kommunikativ vositasiga aylandi. Hozirgi kunda foydalanuvchilar oddiy matn bilan bir qatorda “kulgi emoji”, “yurak belgisi”, “layk belgisi” kabi raqamli belgilar orqali his-tuyg‘ularini ifodalamoqda. Ayrim hollarda emojilar butun bir gapning o‘rnini bosmoqda. Masalan, “kulgi emoji” kulgi yoki hazilni, “yurak belgisi” muhabbat yoki yoqtirishni, “layk belgisi” esa tasdiq ma‘nosini bildiradi. Bu esa yozma nutqning yangi vizual shaklini yuzaga keltirdi. Emojilar muloqotni hissiy jihatdan boyitsa-da, ayrim hollarda so‘z bilan ifodalash madaniyatining kamayishiga olib kelishi mumkin. Memlar esa ijtimoiy tarmoqlarda tez tarqaladigan kulgili yoki kinoyali mazmundagi rasm, video va matnlardir. Ular ko‘pincha ijtimoiy hodisalarga munosabat bildirish vositasi sifatida qo‘llaniladi. Memlar orqali shakllangan iboralar qisqa vaqt ichida ommalashib, kundalik nutqqa kirib bormoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar tilining keng tarqalishi adabiy til me‘yorlariga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, imlo qoidalariga amal qilmaslik, grammatik xatolar, shevaga xos birliklardan foydalanish va fonetik yozuvlarning ko‘payishi kuzatilmoqda. Masalan, foydalanuvchilar tomonidan “zo‘rku”, “qalesan”, “bo‘pti”, “kevoman” kabi shakllarning qo‘llanilishi yozma adabiy nutqning buzilishiga sabab bo‘lmoqda. Ayrim hollarda lotin va kirill alifbosining aralash yozilishi ham uchraydi. Bu holat yoshlarning savodxonlik darajasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Biroq ijtimoiy tarmoqlar tilning rivojlanishiga faqat salbiy emas, ijobiy ta‘sir ham ko‘rsatmoqda. Internet orqali yangi terminlar, ilmiy tushunchalar va zamonaviy texnologiyalarga oid atamalar tez tarqalmoqda. Elektron lug‘atlar, tarjima dasturlari va sun‘iy intellekt texnologiyalari o‘zbek tilining xalqaro miqyosda qo‘llanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Masalan, Google Translate yoki Yandex Translate kabi platformalar o‘zbek tilini avtomatik tarjima tizimlariga kiritib, uning xalqaro kommunikatsiyadagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar tilining adabiy tilga ta‘siri va uning lingvistik xususiyatlari

Qo‘llanish	Adabiy tilga ijobiy ta‘siri	Adabiy tilga salbiy ta‘siri
		Xorijiy so‘zlar ko‘payadi
	Tezkor muloqot ta‘minlanadi	Imlo me‘yorlari

			So‘z bilan ifodalash kamayadi
O‘zlashma so‘zlar			Milliy til me‘yoriga ta’sir qiladi
			Til madaniyatiga salbiy ta’sir qilishi mumkin

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar tilining ommalashuvi sharoitida adabiy til madaniyatini saqlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Yoshlarni savodli yozishga o‘rgatish, internetda adabiy til me‘yorlariga rioya qilish madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ta’lim tizimida nutq madaniyati va media savodxonlikka oid darslarni kuchaytirish, internet kontentlarini sifatli tashkil qilish hamda o‘zbekcha muqobil terminlarni yaratish bu boradagi muhim vazifalardan biridir. Shuningdek, jurnalistlar, blogerlar va kontent yaratuvchilarning adabiy tilga rioya qilishi ham internet muhitidagi til madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi. Umuman olganda, ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy til taraqqiyotining muhim omiliga aylanib ulgurgan. Ular tilning boyishiga, yangi kommunikativ shakllarning yuzaga kelishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, adabiy til me‘yorlarini saqlash va milliy til madaniyatini rivojlantirish bugungi kunning eng muhim masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

XULOSA. Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy jamiyatning eng muhim kommunikatsiya vositalaridan biri bo‘lib, ular o‘zbek adabiy tilining rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, Facebook, Instagram, Telegram va TikTok kabi platformalar orqali muloqot jarayonida yangi leksik birliklar, neologizmlar, qisqartmalar hamda internet slengi keng qo‘llanilmoqda. Bu jarayon tilning boyishiga, yangi tushunchalarning tez ommalashishiga va kommunikativ imkoniyatlarning kengayishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar tilining keng tarqalishi natijasida adabiy til me‘yorlariga rioya qilmaslik, imlo va uslubiy xatolarning ko‘payishi, fonetik yozuvlar va norasmiy shakllarning ortishi kabi holatlar ham kuzatilmoqda. Bu esa, ayniqsa, yoshlar nutq madaniyatiga ma’lum darajada salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Demak, ijtimoiy tarmoqlar til taraqqiyotini tezlashtiruvchi omil sifatida qaralishi bilan birga, adabiy til me‘yorlarini saqlash masalasi ham dolzarbligicha qolmoqda. Shu sababli internet tilidan oqilona foydalanish, adabiy til qoidalarini saqlash va yoshlar nutq madaniyatini rivojlantirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov A., Tursunova D. (2021). *O‘zbek tilining ijtimoiy tarmoqlardagi o‘zgarishlari*. O‘zbek tilshunoslik jurnali, 45(3), 56–65.
2. Qahhorov B. (2022). *Til va texnologiyalar: hozirgi o‘zbek tili rivoji*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
3. Asqarov N. (2020). *Sun‘iy intellekt va o‘zbek tili*. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
4. Begmatov E. (2006). *Hozirgi o‘zbek adabiy tili*. Toshkent.
5. Mahmudov N. (2010). *Til va jamiyat*. Toshkent.
6. Rasulov R. (2015). *Nutq madaniyati va notiqlik san‘ati*. Toshkent.
7. Crystal D. (2001). *Language and the Internet*. Cambridge University Press.
8. Cannon G. (1987). *Historical Change and English Word-Formation*. New York: Peter Lang.
9. Bauer L., Reiss S. (2014). Lexical creativity in social media platforms.
10. Nishimura Y. (2008). Online discourse and internet communication studies. Language@Internet.